

MIRZO ULUG'BEKNING „TARIXI ARBA ULUS”ASARI MUHIM TARIXIY MANBA SIFATIDA

Olimova Iroda

Buxoro davlat universiteti birinchi bosqich magistranti

F.U.Temirov

Ilmiy rahbar, BuxDU dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14528499>

Annotatsiya. Mirzo Ulug`bek ko`p qirrali ilm-fan vakili sifatida astronomiya, musiqashunoslik va tarix sohasiga oid qator asalar muallifidir. Ushbu maqolada Mirzo Ulug`bek Ko`ragon qalamiga mansub “Tarixi arba ulus” asarining tasnifi hamda uning mo`g`ul xalqlari tarixini o`rganishdagi ahamiyati haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** Mirzo Ulug`bek, „Tarixi arba ulus”, „yos”, Temuchin, Jaloliddin Manguberdi, Monmakon ibn Chig`atoy, O`qtoyxon, Mo`g`iliston, merkit, Jo`jixon, Dashti Qipchoq, Burta, o`zbek, Xaloguxon, Eron, Abbosiylar, Chig`atoy ulusi.

MIRZO ULUG'BEK'S "HISTORY OF THE ARBA ULUS" IS AN IMPORTANT HISTORICAL SOURCE

Abstract. Mirzo Ulugbek, as a representative of multifaceted science, is the author of a number of essays on astronomy, musicology and history. This article discusses the classification of the work “Tarihi Arba ulus” written by Mirzo Ulugbek Koragon and its importance in studying the history of Mongol peoples.

Key words. Mirzo Ulugbek, „Tarikhi arba ulus”, „yos”, Temuchin, Jalaluddin Manguberdi, Monmakon ibn Chigatoy, Oktoykhan, Mongolia, Merkit, Jozhikhan, Dashti Kipchak, Burta , Uzbek, Khaloghun, Iran, Abbasids, Chigatai dynasty.

ВАЖНО ТРУД МИРЗО УЛУГБЕКА «ИСТОРИЯ УЛУСА АРБА» КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК

Аннотация. Мирзо улугбек был всесторонне одаренным представителем науки, являющимся автором произведений по астрономии, истории и музыке. В этой статье речь пойдет об историческом произведении Мирзо Улугбека Курагани “Тарихи арба улус” и его роли в изучении истории монголов.

Ключевые слова. Мирзо Улугбек, Тарихи арба улус, Ёс, Темучин, Джалалуддин Мангуберди, Монмакон ибн Чигатой, Октойхан, Монголия, Меркит, Джозжихан, Дашти Кипчак, Бурта, Узбек, Халогун, Иран, Аббасиды, Чигатайский улус.

Markaziy Osiyoning yirik namoyandalaridan biri, Temur saltanatining sultoni Mirzo Ulug`bek(1394-1449) o`z ilmiy faoliyati davomida fan va ma`rifat rivojiga ulkan hissa qo`shdi.

Mirzo Ulug`bek ham davlat ishlari, ham ilm va ma`rifatni birga olib bordi. Bartold aytganidek „Ulug`bekkacha musulmon dunyosida taxtga o`tirgan hukmdor yo`q edi.“<sup>1</sup> Yoshligidan ilm-fanga chanqoqligi uni falakkiyot, tarix, handasa, riyoziyot va boshqa fanlarni puxta o`rganishga undadi. Keyinchalik Ulug`bek o`nlab shogirdlari va do`stlari bilan birgalikda Markaziy Osiyoda o`z davrining yagonasi bo`lgan Samarqand rasadxonasiga asos soldi. Ulug`bek rahbarligi va homiyligi ostida rasadxonada maorif yuksaldi, keng va puxta astronomik kuzatishlar natijasida juda qimmatli ma`lumotlar to`plandi va yirik bir yulduzlar jadvali bo`lmish „Zij“ yaratildi. Serqirra olim sifatida Mirzo Ulug`bek temuriylar davri tarixshunosligida yuqori baholangan „Tarixi arba ulus“ yoxud „To`rt ulus tarixi“ asarini yozdi.

1425 yilda (yoki hijriy 828-829-yillar) Ulug`bekning shaxsan o`zining ishtirokida fors tilida yozib tugallangan bu asar muqaddima va yettita asosiy bodan iborat. Hozirda asarning qo`lyozma variant Angliyaning Buyuk Britaniya muzeyida saqlanmoqda. „Tarixi arba ulus“ XIII asr davri tarixini chuqur o`rganishda muhim tarixiy manba bo`lib xizmat qiladi. Shuningdek, u dunyoning turli tillariga tarjima qilingan: polkovnik G.Mayls asarni ingliz tiliga tarjima qilib, 1832 yilda Londonda nashr qilinga. Asarda keltirilgan mo`g`ul xalqlarining siyosiy, ijtimoiy hayoti ayniqsa qolgan manbalar bilan birga o`rganganda juda qimmatli. Asarda mo`g`ul qabilalarining kelib chiqish tarixi, ko`chish jarayonlari, urug`-qabilaviy munosabatlarning qaror topishi, Chingizxon va uning avlodlari asos slogan davlatlar yoritiladi. Mirzo Ulug`bek asarda mo`g`ul xalqlari borasida quyidagi fikrlarni keltiradi: „Mo`g`ul sho`basi to`qqiz nafardir. Ulardan dastlabkisi Mo`g`ulxon, ularning oxiri Elxon va to`qqiz raqamiga e`tibor mo`g`ul firqasi orasida shu najhdan rivoj topadi. Mo`g`ullarning bu e`tibori tahqiqga ko`ra, har martabada to`qqiz sanog`idan ortig`ini lozim ko`rmaydilar.“<sup>2</sup> Yuqoridagi parchada mo`g`ul xalqlarining hayotida to`qqiz raqamining o`rni yoritilgan bo`lib, mo`g`ulchada „yos“ ya`ni to`qqiz raqami samoviy va kundalik hayotning eng muhim raqami bo`lgan. Jumladan, har to`qqiz yilda mo`g`ul hukmdorlari shomonlik e`tiqodi asosida poklanish marosimi o`tkazganligi tarixiy manbalarda uchraydi³. Bu esa asarning nafaqat mo`g`ul xalqlarining ijtimoiy-siyosiy balki, etnologik tarixini o`rganishda ham muhimligini ko`rsatadi.

„Tarixi arba ulus“da Chingizxonning tug`ilishidan taxtga chiqqunigacha bo`lgan siyosiy faoliyati hamda undan keyingi harbiy yurishlari mufassal bayon etilgan va muallif asarning katta qismini Chingizxon oilasi va avlodlari tarixiga bag`ishlagan. Shu sababdan ham asar „Ulusa arbai Chingiziy“ (Chingiziylarning to`rt ulusi) nomi bilan ham mashhur. Asarda keltirilgan ma`lumotga ko`ra „Temuchin“ ismining tanlanishi ham diqqatga sazovordir. Temuchin bu o`sha davrlarda

¹ Бартольд В.В. Указ. соч. С. 134

² М.Улугбек. Турт улус тарихи. Тошкент. 1994.б. 27

³ А.Э. Гармаева. Числовая символика в монгольском языке: семантика и функции. Вестник Бурятского Государственного Университета. 2008. с. 109

qudratli totor davlatining hukmdoriga tegishli ism bo'lgan. Chingizxonning otasi Yosug'ay Bahodir totor xalqlari ustidan qozongan g'alabasidan so'ng unga o'g'il farzandli bo'lgani haqida elchidan xabar oladi. Mo'g'ul fiqasi buzurglaridan unga nom qo'yishlarini so'raganida esa buzurglar orasidan lashkar qo'mondoni So'g'uq Chechan akobirlarga xos ism sifatida „Temuchin“ni tavsiya beradi. Keyingi harbiy-siyosiy faoliyat natijasida hokimiyatni egallagan Temuchin qoon markit xalqi⁴ sardori To'qtobeki bilan jangidan so'ng hijriy 602 yili (milodiy 1206- yil) butun mo'g'ullar sardori deb e'lon qilingan qurultoyda „Chingizxon“ laqabini olgani ham yoritiladi. „Chingizxon“ turk tildan tarjima qilganda „shohlar shohi“ demakdir.

Chingizxon XIII asrda yirik bir feodal imperiyaga asos soldiki, davlati sarhadlari harbiy yurishlari natijasida tobora kengayib bordi. Mazkur davrda mo'g'ullar davlati asosan „ming oila“ deb nomlangan harbiylashtirilgan ma'muriy bo'linishga ega edi va bu birliklar tahminan 95tani tashkil qilardi.⁵ Shuningdek, yurishlari orasida O'rta Osiyo, ayniqsa, Xorazmshohlar davlatiga qilingan yurish diqqatga sazovordir. Asarda Najmiddin Kubro, Xorazmshohlar davlati hukmodir Muhammad Sulton va Jaloliddin Manguberdi bilan bo'lgan voqealar ham mufassil bayon etilgan. G'azna yaqinidagi Parvon jangidan so'ng Chingizxon qo'shini Jaloliddin Manguberdi tomonidan yakson qilinadi va hijriy 619yilda (milodiy 1223 yil) Badaxshondagi Bomiyo⁶ qal'asidagi jang paytida Chingizxonning suyukli nabirasi Monmakon ibn Chig'atoyxon charx o'qidan yaralanib vafot etadi. Mudhish voqeadan ranjigan Chingizxon Sulton Jaloliddin qasdigacha tushib o'zining ikkinchi va uchinchi o'g'illari Chig'atoy va O'qtoyxonni Jayxun(Amudaryo) tomon yurishga buyuradi, janglar davomida Xorazmning Kot va Qiyot shaharlari mo'g'ullarga taslim bo'ladi va Chingizxonning tasarrufiga o'tib, sodiqlikka qasam ichadi. Sulton Jaloliddin tahminan 700 kishilik askari bilan Sind daryosi (Hindiston)da ham qarshilikni davom ettirdi. Kuchlar nisbati teng bo'lmaganligi sababi Jaloliddin daryo tarafga chekinishga va daryodan kesib o'tishga majbur bo'ldi. Mirzo Ulug'bek kitobda mazkur voqeani keng yoritadi va Chingizxonning o'g'illariga yuzlanib Sulton Jaloliddinga nisbatan aytgan so'zlarini quyidagicha bayon etadi: „Otdan hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib, daryoda esa nahang(akula) kabi botir... Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob – olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqq oldi.“⁷

Milodiy 1227 yil avgust oyida Chingizxon xastalikdan vafot etadi va asarda bu holat quyidagicha bayon etiladi „Bu voqea 624-yilning muborak ramazon oyining to'rtinchi kuni, turklarning takuri yilida sodir bo'lgan bo'lib, buy yil uning ham tug'ilgan, ham saltanat taxtiga

⁴ Markit xalqi januni-g'arbiy Baykalbo'yi (hozirgi Buryatiya respublikasining janubi) mo'g'ul xalqlaridandir.

⁵ Носир Мухаммад. Турон давлатлари ва ҳукмдорлари йилномаси. Т. 2011. Б.58

⁶ Afg'onistonning shimoliy qismida joylashgan qadimgi shahar bo'lib, mazkur davrda Xorazmshohlar davlati tarkibida edi.

⁷ М.Улугбек. Турт улус тарихи.Тошкент.1994.6.112

o'tirgan yili edi. Mo'tabar tarix kitoblarida yozilishicha, Sohibqironi a'zam Chingizxon yetmish uch yil umr ko'rgan. Qirq to'qqiz Yoshida taxtga o'tirgan va yigirma besh yil podsholik qilgan. Zikr etilgan yilda esa vafot etgan. O'g'illarining ichida esa to'rttasi ma'lum va mashhur edi. Jo'jixonning Dashti Qipchoqda o'lganiga olti oy bo'lgan edi. Sohibqironi a'zam Chingizxon huzurida Chig'atoyxon, O'qtoyxon, Tulixon, Qorachor no'yon (Chingizxonning amakilari naslidan) va xizmatga ketgan to'rt no'yondan boshqa barcha ulug' no'yonlar xozir edilar.⁸ Chingizxonning vasiyatiga ko'ra Ulug' Yurt (Mo'g'iliston) taxtiga to'ng'ich o'gli O'qtoyxon o'tiradi. Qorachor No'yon esa Chingizxonning talabiga ko'ra o'g'illarining maslahatchisi etib belgilanadi. Kitobda O'qtoyxon shaxsiyasi ijobiy yoritiladi Jumladan: „U (O'qtoyxon) o'zining davlati ayyomida musulmonlarni ko'p hurmat qildi. O'qtoy qoon o'zining sahiyligi, karam va adolatparvarligi bilan boshqa aka-ukalaridan butunlay ustun turardi, shuning uchun ham otasi o'limi oldidan uni valiahdlikka tayinlagan edi. Aytishlaricha, O'qtoy so'zining ma'nosi mo'g'ul tilida „oliylikka ko'tariluvchi demakdir.“ Asardagi voqealar rivojida O'qtoyxondan so'ng Ulug' Yurt taxtiga o'tirgan O'qtoyxon va Tulixonning⁸ avlodlari zikri ham xronologik ketma-ketlikda beriladi va O'qtoyxon naslidan O'doy qoon hukmronligidan so'ng Qoqaqurumni oyrot qabilalari egallab oladilar.

Asarning beshinchi bobida Jo'jixondan boshlab Dashti Qipchoqda (hozirgi Qozog'iston, G'arbiy Sibir, Volgabo'yi atroflari) hukmronlik qilgan 33ta hukmdor nomi beriladi. Chingizxon mulklarini suyurg'ol qilish paytida Dashti Qipchoq uning sevimli o'g'li Jo'jixonga tegadi. „Jo'ji“ mog'ulchadan tarjima qilganda „yo'ldan kelgan mehmon“dir. Buning o'z tarixi bo'lib, Chingizxonning xotini Burta Kuchin markit xalqlaridan asirlikdan qaytayotganda uni yo'lda dunyoga keltiradi. Chingizxonning Jo'jixonga nisbatan muhabbati qolgan farzandlariga nisbatan ayniqsa yuqori bo'lgan. Bunga Jo'jixon vafot etganda Chingizxon aytgan quyidagi misralarni misol keltirishimiz mumkin:

„Qulon olg'on quvlandi, qulunimdan ayrildim,

Ayрилishqon anquri er ulumdan ayrildim.“

Mirzo Ulug'bek bu satrlarni quyidagicha izohlaydi: „Ov qilish uchun ov maydonida quvlanayotgan qulonga o'xshayman, qulon o'zi qochadi, ammo bolasi qoladi, men ham xuddi qulon kabi bolamdan judo bo'ldim! Men bir soddadil odamga o'xshayman, soddadil kishi do'st deb fahmlab, dushman o'rtasida qolib, hamrohlaridan ayriladi, men esa o'z mardona farzandimdan judo bo'ldim.“⁹ Jo'jixondan so'ng uning taxtini o'g'li Botuxon (1208 -1255) egallaydi va harbiy yurishlari natijasida katta hududlarni qamrab olgan Oltin O'rda davlatiga asos soladi. Dashti

⁸ Tulixon (Bolig' no'yon nomi bilan ham mashhur) hijriy 627 yili yoki milodiy 1230 yili akalari Chig'atoyxon, O'qtoyxon bilan birga Xitoydagi yurish paytida vafot etadi. Qabri hozirgi ichki Mog'ilistonda.

⁹ М.Улугбек. Турт улус тарихи. Тошкент. 1994.6.135

Qipchoq xonlari orasida ayniqsa O'zbekxon ibn To'g'ralni Mirzo Ulug'bek alohida ta'kidlab o'tib, o'zbek ulusini uning nomini u bilan bog'laydi. Buni haqiqatga to'g'ri kelishini N.Aristov, A. Yakubovskiy, P.Ivanovlar o'sha davrda Dashti Qipchoq atroflarida yashagan tuk-mo'g'ul xalqlari „o'zbek“ deb atalgani bilab izohlaydilar. Shuningdek asarda Oltin O'rda xoni To'xtamishxon va Amir Temur o'rtasidagi voqealar ham qisqacha bayon qilib o'tiladi.

Keyinchalik Tulixonning o'g'li Xalokuxon (1256 -1265)¹⁰ tomonidan Eronda asos solingan, poytaxti Tabriz bo'lgan Xulakiylar davlati haqida asarning oltinchi bobida malumot beriladi va Xalokuxondan boshlangan yigirmata podshoh zikri berilgan. G'arb manbalarida Elxoniylar nomi bilan mashhur bo'lgan bu davlar XIII asr siyosiy hayotida katta ahamiyatga ega edi. Ayniqsa sulola asoschisi Xuloku Chingizxonning sevimli nabirasi edi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha Xuloku feodal hayot tarziga unchalik ham qiziqish bildirmagan, balki ko'chmanchi hayot tarzi va shikor uning sevimli mashg'uloti bo'lgan. Xulokuxon shomonlik dining vakili bo'lishiga qaramasdan o'sha davrda boshqa diniy qarashlarga diniy bag'rikenglik bilan yondashadi. Buni tarixchilar uning onasi hamda xotini xristian diniga e'tiqod qilgani va Misrdagi harbiy yurishlarda aynan xristian feodallariga tayangani bilan izohlaydilar. Bu davlat tarkibiga kirgan Armaniston, Ozarbayjon, Rum, Luriston, Gruziya va boshqa hududlar Xulokuxon davlati tarkibiga kirgan, garchi bu hududlarni avvaldan hokimiyat tepasida turgan sulolalar boshqarga bo'lsada, ular elxon boshliqlarga bo'ysungan. Bu shaxslar mo'gullarda „bosqoqlar“, eronda esa „shixnalar“ deb nomalangan. Xulakiylarning tarixdagi eng yorqin yurishi bu Arab xalifaligining tugatilishi edi. Xulokuxon 1258 yil o'ninchi fevral kuni Abbosiylar sulolasining so'nggi vakili xalifa Musta'simni qo'lga oladi. Sulolaning barcha yashirin xazinalari qo'lga kiritilib, so'nggi arab xalifasi otlar oyog'i ostida qatl etiladi, ahli ayollari esa qul qilib sotib yuboriladi.¹¹ 500 yildan ortiq hukm surgan ulkan feodal davlat - arab xalifaligi mo'gular tomonidan tugatiladi. Xulakiylar davlatida ko'zga tashladigan bir narsa shuki, davlat boshqaruvining ayrim davrlarida taxtga sulolaning ayol vakillarini ham uchratishimiz mumkin. Xulakiylar davlatining to'qqizinchi xoni sanalmish Sulton Abusa'idning singlisi Malika Sokinabegim bintu O'ljoytu Sulton marhum Amir Shayx Xasandan so'ng sulolaning erkak vakillari qolmagani sababli hijriy 739yilda (milodiy 1338 yil) o'n to'rtinchi hukmdori sifatida taxtga o'tirgani misol bo'ladi.¹²

„Tarixi arba' ulus“ning keyingi qismlarida Chig'atoyxon va u asos solgan Chig'toy ulusi haqida so'z boradi. Chig'atoy ibn Chingizxon „Yasoq va turada boshqa aka-ukalaridan yuqori turardi. Sohibqironi a'zam Chingizxoni muazzam mamlakatlarni taqsimlash paytida Turonzamin

¹⁰ История монгольских завоеваний. Великая империя кочевников от основания до упадка / Д. Д. Сондерс — «Центрполиграф», 1972 С.10

¹¹ И. В. Пигулевская, А. Ю. Якубовский, И. П. Петрушевский, Л. В. Строева, А. М. Беленицкий История Ирана с древнейших времен до конца XVIII века. Издательство Ленинградского Университета. 1958. с186-191

¹² М. Улугбек. Турт улус тарихи. Тошкент. 1994. 6. 173

mamlakati hokimligini Qoshgʻar sarhadlaridan uygʻurlar yer chegarasigacha, Jayhun daryosi adogʻigacha yastangan yerlar, Eron va Turon oraligʻidagi Balx, Badaxshon, Qobul, Gʻaznin, Sind daryosigacha boʻlgan yerlarning koʻp qismini shu sevimli farzandiga berdi.`` Davlatining poytaxti esa Beshbaligʻ shahri boʻlib, asrda „baligʻ`` soʻzining lugʻaviy maʼnosi „Shahar`` soʻzi deyiladi. Mirzo Ulugʻbek Chigʻtoy naslidan boʻlgan va tahminan 109 yil hukmronlik qilgan 24ta Chigʻatoy naslidan boʻlgan xonlarni nomma nom bayon etadi. Ammo Amir Qozogʻon Sultonning yurishlaridan soʻng taxtni endi Oʻqtoyxon naslidan boʻlgan yigirma beshinchi shahzoda Donishmandchaxon egallaydi. Chigʻatoy ulusi taqdiri Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi natijasida tugatilib, yangi temuriylar davlatiga asos solinadi.

„Toʻrt ulus tarixi`` nafaqat moʻgʻullar, shubhasiz butun turkiy xalqlar tarixidir deya olamiz. Zero, inson bu asarni oʻqish orqali nafaqat yetti pushtini, balki butun shajarasini bilib oladi deb ayta olamiz.

REFERENCES

1. М.Улугбек. Турт улус тарихи.Тошкент.1994
2. Бартольд В.В. Указ. соч. С. 134
3. А.Э. Гармаева. Числовая символика в монгольском языке: семантика и функции. Вестник Бурятского Государственного Университета.2008
4. И. В. Пигулевская, А. Ю. Якубовский, И. П. Петрушевский, Л. В. Строева, А. М. БеленицкийИстория Ирана с древнейших времен до конца XVIII века. Издательство Ленинградского Университета.1958.
5. История монгольских завоеваний. Великая империя кочевников от основания до упадка / Д. Д. Сондерс — «Центрполиграф», 1972
6. Носир Мухаммад. Турон давлатлари ва хукмдорлари йилномаси. Т. 2011